

Uyushtirishda jamiyat sohalari rivojlanishida muhim aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.Xolmanova, Zulkumor.

Tilshunoslik nazariyasi [Matn] : darslik / Zulkumor Xolmanova.

Toshkent: Nodirabegim, 2020. 3-6-betlar.

2.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>

3. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолингвистики). –Л., 1975. –С. 177.

4. Азизов О. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1996.

5.Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. I-қисм. Фонетика
Ва фонология. –Тошкент, 1999.

BOSHLANG‘ICH SINF SAVOD O‘RGATISH DAVRI YOZUV DARSLARIDA NUTQ O‘STIRISH

Utanbayeva Dildora Abdixadirovna

Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d(PhD)

Qurbanboyeva Zuhra Davlatboy qizi

GulDPI boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish davrida o‘qituvchi-pedagogning oldidagi vazifalari, mas’uliyatlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarni to‘g‘ri va ongli o‘qitish, imlo qoidalariga rioya qilib, savodli yozishga o‘rgatish, lug‘at boyligni oshirish, nutqini o‘stirish, bolalarga axloqodob, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik kabi tarbiyalarni singdirish vazifalari ilgari surilgan. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun savod o‘rgatish davrida va undan keyin qilinishi lozim bo‘lgan topshiriqlar, turli manbalardan foydalanish, ona tilini o‘rgatish bilan bog‘liq ravishda maktablar oldiga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o‘quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish usullari keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar : yozuv ko‘nikmaları, alifbe, “hijjai qadimiy”, qo‘llanmalar, nutq, analiz-sintez tovush metodi, ko‘rgazmali ta’lim, tafakkur.

РАЗВИТИЕ РЕЧИ НА УРОКАХ ПИСЬМА В ПЕРИОД ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Утанаева Дилдора Абдихадыровна

*Старший преподаватель кафедры «Методика дошкольного и начального образования» Гулистанского государственного педагогического института,
кандидат педагогических наук.*

Курбанбоева Зухра Давлатбой кызы

Студент начального образования ГулДПИ, 3-й этап

Аннотация: В данной статье изложены задачи и обязанности учителя-педагога в период обучения грамоте учащихся начальной школы. Изложены задачи правильного и осознанного обучения учащихся, обучения грамотному письму в соответствии с правилами орфографии, увеличения словарного запаса, развития речи, воспитания у детей таких ценностей, как нравственность, любовь к Родине, трудолюбие. В нем также подробно освещаются задачи, которые предстоит решать будущим учителям начальных классов в процессе обучения грамоте и после него, использование различных ресурсов, реализация образовательных задач, поставленных перед школами в связи с обучением родному языку, методы формирования нравственных и эстетических качеств учащихся.

Ключевые слова: навыки письма, алфавит, «древняя хиджа», пособия, речь, анализ-синтез звуковой метод, наглядное обучение, мышление.

SPEECH DEVELOPMENT IN WRITING LESSONS IN THE PRIMARY GRADE LITERACY TEACHING PERIOD

Utanbayeva Dildora Abdikhadirovna

*Senior teacher of the Department of "Preschool and Primary Education
Methodology" of the Gulistan State Pedagogical Institute, Ph.D. (PhD)*

Kurbanbayeva Zuhra Davlatboy kizi

Student of the 3rd stage of the GulDPI primary education direction

Annotation: This article outlines the tasks and responsibilities of the teacher-pedagogue during the period of teaching literacy to primary school students. It sets out the tasks of teaching students correctly and consciously, teaching them to write literately, observing the rules of spelling, increasing vocabulary, developing speech, and instilling in children such upbringing as morality, love for the Motherland, and

hard work. Also, the tasks that future primary school teachers should perform during and after literacy teaching, the use of various sources, the implementation of educational tasks set for schools in connection with teaching the mother tongue, and the methods of forming moral and aesthetic qualities in students are widely covered.

Keywords: writing skills, alphabet, "ancient hijjai", manuals, speech, analysis-synthesis sound method, demonstrative education, thinking.

O‘zbekistonda o‘qitishning o‘ziga xos usullari mavjud va ular rivojlanib kelmoqda bugungi kungacha ham. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida”gi 203-sonli qarorida umumiy o‘rta ta’lim ikki bosqichdan iborat qilib belgilandi:

1. Boshlang‘ich ta’lim.
2. Umumiy o‘rta ta’lim.

Hozirda o‘quvchilarga bilim berish, bilimlarni oshirishda mustaqil ishlarni uyushtirish, bilimlarni hisobga olish kabi metodik tavsiyalar ishlab chiqilmoqda, texnik vositalardan unumli foydalanish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos ta’limiy-tarbiyaviy o‘yinlarni joriy etish keng tus olmoqda, ta’lim jarayonida test topshiriqlaridan, turli boshqotirma va jadvallardan keng foydalangan holda mashg‘ulotlar uyuştirilmoqda.

K.D.Ushinskiy boshlang‘ich mакtab o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga, yozuv mashg‘ulotlariga katta ahamiyat berib, “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsan o‘rgatadi... Bola kki-uch yil ichida shuncha ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmigacha o‘rgana olmaydi. Ona tilining ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir”, - deydi u.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini o‘qitish savod o‘rgatsh davridan boshlanadi, ya’ni mакtabda elementar o‘qish va yozishdan boshlanadi. “Alifbe”ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o‘quvchilar o‘qish va yozishga o‘rgatilad, ya’ni o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallaydilar.

O‘qish va yozish kishi nutq faolyatining turi bo‘lib, u nutqqa oid malakadir. O‘qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faolyatining boshqa turlari bilan, ya’ni og‘zaki hikoya qilish, o‘zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Mакtabda o‘qitishning muvaffaqiyati savod o‘rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog‘liq.

O‘quvchilarni savod o‘rgatish jarayonida elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishda o‘quvchilarning faoliyat ko‘rsatishi va nutq faolyatiga kirishishlari uchun talab

bo‘lishi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma ifodalashi uchun zarurat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

O‘qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta‘minlaydi. Shuning uchun ham o‘qishga o‘rgatsh bilan yozuvga o‘rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. O‘quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad – o‘qish va yozishni o‘rganish hamda hozirda bajarishi shart bo‘lgan kundalik maqsad – topsihmoqni o‘qish va javobini topish, so‘z va gaplarni o‘qish, rasm asosida so‘zlab berish kabilar turadi.

O‘qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni tovush va harflar bilan bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o‘qishga o‘rgatishda o‘zbek tilning fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o‘rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asoslanganholda olib boriladi. So‘z bo‘g‘inga bo‘linadi, bo‘g‘indan kerakli – o‘rganilayotgan tovush ajratib olinadi, tahlil qilinadi, o‘rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o‘qish jarayoni o‘zlashtiriladi.

Savod o‘rgatishni to‘g‘ri tashkil etish uchun bolalarning unga nutqiy tayyorgarligini maxsus o‘rganish talab etiladi. Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tekshirishga oid malaka shakllantiriladi: ular yozganlarini namuna bilan solishtiradilar, yo‘l qo‘ygan xatolarini topadilar, ularni izohlashga o‘rganadilar.

Yozuv darslarida ham o‘quvchilar nutqini o‘sirish, fikrlashga o‘rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Yozuvga o‘rgatishing dastlabki kunlaridan o‘z fikrini yozma ifodalashi muhim ekanligini, u insonlarning aloqaga kirishuvida muhim vositaligini tushunishlariga erishish lozim. Buning uchun o‘quvchilar yozadigan birinchi so‘z ularning jonli nutqidan yoki o‘zlarini tuzgan gapdan olinish kerak. Bu jarayonda ko‘chirib yozish va diktant ijodiy ijodiy yozuvdan so‘ng o‘tkaziladi. Bu yozma mashq turlarining ongli bajarilishini, o‘quvchilarning bilish faolligini ta‘minlaydi. Masalan, bolalar o‘qish darsida “Alifbe”da berilgan rasmga qarab gap yoki hikoya tuzadilar, yozuv darsida esa o‘scha gap yoki hikoyadagi ma’lum bir so‘zni yozadilar. Bu ular uchun ijodiy yozuv – inshodir.

Ijodiy yozuv mashqini doimo izchil ravishda o‘tkazib, asta-sekin murakkablashtirib borish kerak. Bunday mashqlar o‘quvchilarni insho va bayon yozishga tayyorlaydi, o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga o‘rgatadi.

Asar mazmuni bilan birinchi tanishish o‘quvchilardan ongli ishslashni, ya’ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini analiz qilishni talab etadi. O‘qish bilan bog‘liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘sirish vositalaridan biri turli uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari

uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli, o‘quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakat asosiy rol o‘ynaydi. O‘quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o‘zaro bog‘liqligini yoritishga yo‘naltirilishi lozim.

O‘qituvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizzdan emas, siintezdan ham foydalaniladi:ayrim lavhalar o‘zaro bog‘lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi.

Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklar, ba’zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o‘ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o‘zaro qiyoslashga, ijobja va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim. O‘quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini oshirishda o‘qituvchining mahorati, metodikasi, bolalar bilan ishlash ko‘nikmasi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash, bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o‘z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlari rivojlanadi. Bolalarning tafakkuri va nutqini o‘stirishning yana bir yaxshi usuli hikoyalashdir. Umuman olganda, boshlang‘ich snf o‘qish darslarida ham o‘quvchilar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga katta ahamiyat qaratiladi.

XULOSA. Bugungi kunda maktabgacha va maktab ta’limiga qaratilayotgan katta e’tibor kelajak yoshlarning yanada bilimli, tirishqoq va yetuk inson bo‘lib yetishishida katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qishga o‘rgatish vazifasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zimmasidadir. Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiatni kuzatishlari vas hu kabi qator ko‘rinishlar nutq o‘stirish uchun asosiy manbalar hisoblanadi. Berilayotgan

bilimga e'tiborli bo'lish va o'quvchilarni to'g'ri ta'lim tizimida tarbiyalashda nutq o'stirishga alohida e'tbor berilishi muhim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. – 128 b.
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich ta'lim j. – T.:2005.
3. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodkasi. – T.: O'qituvchi, 1992.
4. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. Boshlang'ich sinf darsliklarini yaratish mezonlari / Tuzuvchilar: Q. Abdullayeva, M. Ochilov, K. Nazarov, S. Fuzailov, N. Bikboyeva. – T.: 1994.
6. R. Safarova va boshq. Savod o'rgatish darslari (Alifbeni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma). – T.: Ma'naviyat, 2008.
7. Sh. Sariyev. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida nutq o'stirish – pedagogik muammo sifatida // "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnali. – Buxoro, 2024.

Biosfera va Ekosistemalar

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari insitituti "Milliy tadqiqot universiteti Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti Qishloq xo'jaligini mexanoizatsiyalash yo'nalishi 102-guruh talabasi

Nusharov Islom Bobir o'g'li

Anontatsiya. Biosfera va ekosistemalar nafaqat tirik organizmlar uchun, balki butun dunyo uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning ekologik muvozanati va tiklanish jarayonlarini tushunish va himoya qilish, insoniyat uchun kelajakda ekologik barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Anontatsiya. Биосфера и экосистемы являются важными компонентами природных систем, которые тесно связаны друг с другом. Биосфера включает в себя все живые организмы и их взаимодействие с окружающей средой. Экосистема, в свою очередь, представляет собой взаимодействие живых существ и их среды обитания, образующее устойчивую экосистему. В статье рассматриваются основные аспекты биосферы и экосистем, их структура, функции и роль в сохранении экологического равновесия. Особое внимание уделяется воздействию человеческой деятельности на экосистемы и способам их защиты.